

**SIMMENTAL CHATISHTIRISH NATIJASIDA YARATILGAN
LINIYALARI VA OILALARINING SELEKSION BELGILARI**

Ilmiy rahbar

Amonov Rasul Chorshambi o'g'li,

Bakalavr: Sársenbaev Jasurbek

Bakalavr:Taxirov Samandar

Bakalavr: Radjapov Ulugbek

***Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali***

Annotatsiya. Bu moqolada simmental chatishtirish natijasida yaratilgan liniyalari va oilalarining seleksion belgilarini o'rganish.

Аннотация. В данной статье рассматривается изучение селекционных признаков линий и семейств, полученных в результате симментального скрещивания.

Kalit so'zlar: simmental zotli nasldor buqa, Sut miqdor, Sutdorlik koeffitsenti, tirik vazni, naslchilik.

Ключевые слова: симментальская порода племенного быка, количество молока, коэффициент молочности, живая масса, племенное дело.

Kirish. Sutdor qoramolchiligi rivojlangan davlatlarda bu zot sigirlari, masalan, "Snoudel Improver Dezi" lakabli sigir VII laktatsiyaning 305 kunida 3,85% yog'lilikda 18969 kg sut mahsuldorligiga ega bo'lgan, "Iveta" lakabli sigir (AQSHning Nyu-Jersi shtati-dagi "Uayt Klaud" fermasi) 10 laktatsiya davomida yiliga har bir laktatsiya bo'yicha o'rtacha 4,3% yog'lilikda 10 898 kg sut mahsuldorligiga erishganligi kayd etilgan.

Bu ma'lumotlar mashhur sigirlarning irsiy imkoniyatlaridan keng foydalanish muhimligi va ulardan oilalar yaratish zotni genetik jihatdan takomillashtirishda katta ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi.



Tatqiqot maqsadi: Har bir naslchilik podasida sermahsul sigirlar oilalarini yaratish uchun sutbop podalar sut mahsuldorligini, naslchilik ishining samaradorligini, zotni takomillashtirish sur'atini oshirish hamda mahsuldorligi bo'yicha yuqori irsiy salohiyatga ega avlod olish va podalarda ular salmog'ini oshirishda muhim axdmiyatga ega.

Tatqiqot obe'kti: Samarqand viloyati Pastdarg'om tumani Ipak yo'li maxallasi Temiryo'l qishlog'i "K-Eldor" fermer xo'jaligida urchitilayotgan simmental va mahalliy yaxshilangan qoramollarning buqachalari.

Tatqiqot natijalari: M.E.Ashirov, D.SH.Yo'lchiev, O.T.Tojiaxmedov, A.M.Goziev, YO.Nosriddinovlarning ma'lumotiga ko'ra, Andijon viloyatining simmental zotini urchitishga ixtisoslashgan naslchilik fermer xo'jaliklarida yangi liniyalarni yaratishda Evropa seleksiyasiga mansub nasldor "Altaloch", "bombast" buqalardan foydalanilgan.

"Altaloch" - sof simmental zotli nasldor buqa. 1988 yilning 24 fevralida Avstriyada tug'ilgan, 3 yosh 5 oyligida tirik vazni 840 kg, sinfi elita-rekord. Onasining mahsuldorligi: VIII laktatsiyada 4,22% yog'lilikda 8571 kg sutni, otasining onasi mahsuldorligi eng yuqor laktatsiyada 4,12% yog'lilikda 11 666 kg sutni tashkil etgan.

"Bombast" — sof simmental zotli nasldor buqa. 1986 yilning 15 aprelida Avstriyada tug'ilgan, 5 yosh 2 oyligida tirik vazni 1090 kg ni tashkil etgan, sinfi elita - rekord. Onasining mahsuldorligi: I laktatsiyada 4,21% yog'lilikda 7226 kg sutni, onasining onasi III laktatsiyada 4,0% yog'lilikda 7305 kg sutni, otasining onasi IV laktatsiyada eng yuqori 4,17% yog'liliqda 9223 kg sutni tashkil etgan.

Bu ma'lumotlar yangi liniyalar asoschilari maxsuldorlik imkoniyatlari bo'iicha yuqori irsiy salohiyatga ega bo'lganligidan dalolat beradi. Ushbu buqalar urug'i viloyatning sun'iy qochirish tarmog'ida 1998 - 1999 yillardan ishlatila boshlangan. Ko'p yillik ilmiy-amaliy ishlar natijasida viloyatning fermer xo'jaliklari naslchilik podalarida yaratilgan liniyalarga mansub sigirlarning sut mahsuldorligini tahlil qilingan. Uning natijalari 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval



Viloyatning naslchilik fermer xo'jaliklaridagi simmental zotli yangi liniyalarga mansub sigirlarning sut mahsuldorligi

Ko'rsatkichlar	Liniya			
	"Altaloch"		"Bombast"	
	$\bar{X} \pm 8_{\bar{X}}$	Cv, %	$\bar{X} \pm 5_{\bar{X}}$	Cv, %
n	5		5	
Sut miqdor, kg	4094,2 $\pm$ 50,1	14,6	4089,6 $\pm$ 57,	12,9
Sut tarkibidagi yog', %	3,95 $\pm$ 0,006	2,29	3,97 $\pm$ 0,015	3,32
Sut yog'i chiqimi, kg	161,7 $\pm$ 10,2	15,3	162,3 $\pm$ 9,8	14,3
Sutdorlik koeffitsienti, kg	816,2 $\pm$ 41,2	13,4	820,0 $\pm$ 36,7	12,8
Tirik vazni, kg	501,6 $\pm$ 5,30	12,2	498,7 $\pm$ 5,08	7,4

1-Jadval ma'lumotlari tahliliga ko'ra, yangi liniyalarga mansub sigirlar sut mahsuldorligi bo'yicha yuqori irsiy salohiyatga ega. SHuni alohida ta'-kidlash joizki, har ikkala liniya asoschilarining mahsuldorlik bo'yicha irsiy imkoniyatlari deyarli bir xil ekanligi aniqlandi. Bu ularning qizlari sut mahsuldorligi o'rtasida farq deyarli yo'kligi bilan ham tasdiqlanadi.

Xulosa

Har ikki liniyaga mansub sigirlar eng yuqori laktatsiyasida shvits zoti uchun yaxshi darajadagi sut mahsuldorligini yuzaga chiqardilar. Sigirlarning laktatsiya davomidagi o'rtacha sut mikdorini shvits zotining andoza talablari bilan taqqoslaganimizda, "Altaloch" liniyasidagi sigirlarda bu zotning ushbu talablaridan sut mikdori 894,2 kg (27,9%), sut yog'i chiqimi 43,3 kg (36,6%), sut tarkibidagi yog' 0,25%, tirik vazni 31,6 kg (6,72%) yuqori, "Bombast" liniyasidagi sigirlarda ushbu ko'rsatkichlar tegishli ravishda 889,6 kg (27,8%), 43,9 kg (37,1%), 0,27% va 28,7 kg (6,1%) yuqori bo'ldi. Muhimi, har ikki liniyadagi sigirlarda ham sutdorlik koeffitsienti deyarli bir xil va yukori ko'rsatkichga ega bo'ldi, bu esa ushbu sigirlar mahsuldorlik yo'nalishi bo'iicha sut xiliga mansub bo'lganligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Тюлебаев С.Д., и др Особенности роста симментальских бычков в условиях содержания по технологии мясного скотоводства // Зоотехния. 2013. №5. С. 19-20.



2. Шевхужев А.Ф., и др Мясная продуктивность бычков Абердин-ангусской и симментальской пород в условиях Карачаево-Черкесской Республики // Зоотехния. 2012. №3. С. 18-20.
3. Шевхужев А.Ф., Смакуев Д.Р. Мясная продуктивность бычков симментальской и абердин-ангусской пород при использовании разных производственных систем // Зоотехния. 2015. №1. С. 25-27.
4. Шилов А.И. Продуктивность симментал-монбельярдских помесей // Зоотехния. 2002. №1. С. 7-8.
5. Шилов А.И. Мясная продуктивность помесного симментальского скота // Зоотехния. 2005. №2. С. 21-24.
6. Шилов А.И. Продуктивные качества улучшенных симменталов // Зоотехния. 2001. №10. С. 8-10.